

### ADABIYOT DARSLARIDA INTEGRATSIYA VA IJODIY TOPSHIRIQLAR ORQALI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Avezbayeva Jamila Muxtarbayevna**

*Berdaq nomidagi QQDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada umumta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitish jarayonida savol-topshiriqlarning pedagogik ahamiyati va ularni tashkil etishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar yoritilgan. O‘quvchilarda badiiy idrok, estetik tafakkur, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda savol-topshiriqlarning o‘rni, ularning shakl va mazmun jihatidan takomillashuvi, zamonaviy darsliklar va xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan metodikalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, darslarda savol-topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rejalashtirishning amaliy foydasi haqida ham so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Adabiyot, savol-topshiriq, pedagogik metodika, kompetensiyaviy yondashuv, badiiy idrok, ijodiy fikrlash, integratsiya, darslik, metodik vosita.

Zamonaviy ta’lim tizimida adabiyot fanining o‘rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Adabiyot — bu o‘quvchilar ongida milliy g‘urur, tarixiy xotira, estetik did va axloqiy qadriyatlarni shakllantiradigan asosiy fanlardan biridir. Ushbu jarayonda savol-topshiriqlar alohida o‘rin tutadi. Chunki ular nafaqat bilimni mustahkamlash, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, adabiyot darslarida savol-topshiriqlarning shakli, mazmuni, didaktik va tarbiyaviy yo‘nalishlari ustida chuqur izlanishlar olib borilmoqda.

Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni badiiy matn bilan ishlashga, muallif g‘oyasini anglashga, asarni hayotiy voqealar bilan bog‘lashga yordam beradi. Savollar asosan quyidagi yo‘nalishlarda tuziladi:

Mazmuniy savollar – asar syujeti, qahramonlari, asosiy g‘oyasi haqida.

Tahliliy savollar – obrazlar, muallif uslubi, badiiy vositalarni tushunish.

Ijodiy savollar – muqobil yakunlar, esse yozish, monologlar tuzish.

Integratsiyalashgan savollar – tarix, geografiya, musiqa fanlari bilan bog‘liq.

Metodik jihatdan to‘g‘ri tanlangan savollar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, ular faqat eslab qolmaydi, balki o‘z mulohazasini bildiradi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyoti namunalari asoslangan savollar orqali milliy ong va estetik didni shakllantirish mumkin.

2020-yildan keyin yangilangan o‘quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan adabiyot darsliklarida savollar va topshiriqlarga alohida e’tibor berilgan. Jumladan,

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

B.To‘xliyev, B.Karimov, Q.Yo‘ldoshev kabi olimlar tomonidan tuzilgan darsliklarda savol-topshiriqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

O‘quvchini badiiy matnga nisbatan mustaqil pozitsiya egallashga undaydi.

Har bir savolda o‘quvchining axloqiy-ruhiy holati inobatga olinadi.

Savollar orqali g‘oyaviy-estetik tahlilga e‘tibor qaratiladi.

Har bir topshiriq ijodiy yondashuv asosida tuzilgan: sahna ko‘rinmalari tuzish, rolga kirish, esse yozish.[1]

Masalan, 7-sinf darsligida A.Qahorning “Sinchalak” hikoyasiga oid savollar o‘quvchini faqat mazmunga emas, balki muallifning jamiyatdagi muammolarga munosabatini ochib berishga yo‘naltirilgan.

Adabiyot darslarining asosiy maqsadi — o‘quvchining badiiy tafakkurini, estetik idrokini, tasavvur doirasini kengaytirishdir. Bu jarayonda savollar quyidagi tarzda yordam beradi:

O‘quvchini his etishga majbur qiladi.

Matndagi ichki g‘oyaviy qatlamlarga e‘tibor qaratadi.

Asarning bugungi hayot bilan bog‘liqligini ochishga xizmat qiladi.

Misol uchun: “Asardagi bosh qahramonning harakati sizni qanday o‘ylantirdi?”, “Bugungi jamiyatda shunday holatlar uchrayaptimi?”, “Agar siz shu vaziyatda bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?” kabi savollar orqali o‘quvchi asarni o‘z hayoti bilan solishtiradi.

Adabiyot ta‘limi sohasida xorijiy davlatlar, xususan, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi ham o‘rganilmoqda. Ular adabiyot darslarida interaktiv savollar, muqobil tafsir, bahs-munozarali metodlardan keng foydalanadi. Bu metodik yondashuv o‘zbek adabiyoti ta‘limida ham o‘z aksini topmoqda. [2]

Xorijiy tajribalardan foydalangan holda quyidagi yangiliklar joriy etilmoqda:

Darslarda grafik organayzerlar asosida savollar berish.

O‘quvchini vizual idrok orqali tahlilga jalb etish.

Savollarga ko‘p nuqtai nazardan qarashga o‘rgatish.

Bunday yondashuvlar o‘quvchilarni asarni chuqur tahlil qilish, tanqidiy mulohaza yuritishga, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi. [3]

Savollarni boshqa fanlar bilan integratsiyalash – adabiyot darslarining interaktiv va kontekstual xarakter kasb etishiga xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilar adabiy obrazni tarixiy davr bilan solishtirish, geografik makonini xaritada ko‘rsatish, musiqa yordamida kayfiyatini anglash orqali asarni ko‘p qirrali tushunadi.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Shuningdek, quyidagi ijodiy topshiriqlar savol-topshiriqlar tizimining muhim qismi hisoblanadi:

Asarni sahnalashtirish;

Asosiy obraz nomidan monolog yozish;

Davomini yozish yoki muqobil yakunni tuzish;

Asarni bugungi zamon bilan qiyoslash.

Bu topshiriqlar o‘quvchilarda estetik va ijodiy idrokni rivojlantiradi.

Adabiyot darslarida savol-topshiriqlarning to‘g‘ri tuzilishi — darsning samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Ular o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tafakkur, estetik did, tanqidiy yondashuv va ijodiy salohiyatni shakllantiradi. Metodik yondashuvlarning takomillashuvi, darsliklardagi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan savollar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish imkoniyati yaratiladi.

Ta’limning asosi – bu o‘quv topshiriqlari, ya’ni savol va javoblardir. Chunki bolaning intellektual qobiliyatini rivojlantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi: birinchisi, bolaga, talabaga salmoqli, fikrlashga undaydigan muhim savol bera olish; ikkinchisi, o‘quvchining bergan savoliga erinmasdan to‘g‘ri, aniq, misollar asosida javob berish.

Mana shu ikki jarayon sifatli bo‘lsa, ta’lim samarali bo‘ladi. Inson o‘zi tanlagan istalgan sohada yuksak natijalarni qo‘lga kiritishi mana shu ikki jihatga nihoyatda bog‘liq. Berilgan asarni, topshiriqni o‘qib kelish, o‘qib olish qiyin ish emas, uni ustoz talqinida eshitish, birga muhokama qilish tafakkurga kuchli ta’sir qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368 b.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 404 b.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi: an’anaviylikdan zamonaviylikka. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti folklor instituti, 2020. – 160 b.